
**BOSHLANG‘ICH TA’LIMDA TABIIY FANLAR FANINING O‘QITILISHI
MAQSADI VA VAZIFALARI**

Kalmirzayeva Roza Begali qizi

*Chirchiq davlat pedagogika universiteti
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti 2-kurs talabasi
galmirzaevar@gmail.com*

Annotatsiya: Ushbu maqola boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar o‘qitilish jaroyanlari va o‘ziga xos ahamiyatlari va maqsad, vazifalari haqida so‘z yuritiladi. Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar o‘qitilishi boshlang‘ich sinfo ‘quvchilarida savodxonligi va darsga qiziqishini tarbiyalashda muhim o‘rin tutadi. Tabiiy fanlar o‘qitilishi, uning vazifa va maqsadlarini o‘rgatish o‘quvchilarning kuzatuvchanlik, tanqidiy fikrlash, tabiatga mehr va mas’uliyati oshadi.

Kalit so‘zlar: Tabiiy fan, savodxonlik, tanqidiy fikrlash, tabiat, kuzatuvchanlik, tabiyatga mehr.

Abstract: This article discusses the processes and specific significance of teaching natural sciences in primary education. Teaching natural sciences in primary education plays an important role in fostering literacy and interest in lessons among primary school students. Teaching natural sciences, teaching its tasks and goals increases students’ observation skills, critical thinking, love for nature, and responsibility.

Keywords: Science, literacy, critical thinking, nature, observation, love of nature.

Аннотация: В данной статье рассматриваются процессы преподавания естественных наук в начальном образовании и их специфическое значение. Преподавание естественных наук в начальном образовании играет важную роль в развитии грамотности и интереса к уроку у учащихся начальных классов. Преподавание естественных наук, обучение их задачам и целям повышает наблюдательность учащихся, критическое мышление, любовь к природе и ответственность.

Ключевые слова: Естествознание, грамотность, критическое мышление, природа, наблюдательность, любовь к природе.

Shu qatorda umumiy o‘rta ta’lim maktabalarida tabiiy fanlarni rivojlantirish borasida bir qancha qaror va farmonlar qabul qilinib, vazifalar belgilandi. Shulardan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi PQ-4884-son Qarorida

“O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari” to‘g‘risida quyidagilar belgilandi:

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari, akademik litsey va kasb-hunar maktablari o‘quvchilari o‘rtasida fan olimpiadalarini tashkil etish belgilangan. Bu orqali o‘quvchilarning tabiiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini oshirish, tabiiy fanlar bo‘yicha iqtidorli o‘quvchilarni aniqlash, ularni xalqaro olimpiadalarga tayyorlash va g‘oliblarni rag‘batlantirish tizimini takomillashtirish vazifasi yo‘lga qo‘yilgan. Bu orqali yuqori malakali kadrlar tayyorlash, tabiiy fanlar bo‘yicha o‘qituvchilarning malakasini oshirish, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan tanishtirish va metodik qo‘llab-quvvatlash choralarini belgilangan. Bu orqali o‘quvchilarning tabiiy fanga bo‘lgan qiziqishini o‘tirishga va bilim ko‘nikmalarini shakllantirishiga yordam beradi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar fani boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga tabiiy fanlarni o‘qitishda bolalarni har tamonlama mazmunni ochib berguvchi pedagogik fandir. Bu fanning maqsadi boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga bugungi kun talablari asosida yangi texnologiyalardan qo‘llab, kelgusi yosh avlodimizga tabiiy fanlarni o‘rgatishga taylorlashtir. Tabiiy fanni boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga o‘rgatish orqali, ularni tabiyatga bo‘lgan *mehri, ma’suliyati, kuzatuvchanligi* va *tanqidiy fikrashi* oshadi.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar o‘qitilishining to‘gri yo‘lga qo‘yilishi uchun maxsus moddiy bazaga, ya’ni fanga mos o‘quv qurrolari bilan jihozlangan xonatirik tabiat burchagi va o‘quv-tajriba maydonchaosiga ega bo‘lishi kerak. Materialini o‘ziga xos bo‘lishi faqat tabiiy fanlar o‘qitish metodikasining o‘ziga xosligini emas, balki uning tarbiyabiy imkoniyatlarini ham belgilari, tushunchalari shakllanadi. Shuning uchun boshlang‘ich sinf o‘quvchisining psixologik xususiyatlarini chuqr tushunish, ta’lim jarayonini samarali tashkil etish va bolalarning intellektual rivojlanishini to‘g‘ri yo‘naltirishda juda muhimdir.

Boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar fanining maqsadi tabiatga qiziqishini shakllantirish, kuzatish va fikrash ko‘nikmalarini rivojlantirish, ekologik madaniyatini shakllantirish va hayotiy ko‘nikmalarini shakllantirishdir.

Ya’ni boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini zamon talablari asosida yangi pedagogik texnologiyalardan qo‘llab shu orqali yosh avlodimizga tabiiy fanni mukammal o‘rgatishga tayyorlashdir.

Boshlang‘ich ta’lim tabiiy fanlarni asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

1. Talabalarga boshlang‘ich ta’limda tabiiy fanlar fani haqida eng zarur ilmiy-nazariy bilimlarni berish.
2. Boshlang‘ich sinflarda tabiiy fanlar fanini ta’limiy, tarbiyaga va rivojlanuvchi vazifalarini yorotib borish.

3. Talabalarga boshlang'ich ta'limdi tabiiy fanlar fani bazasida zamonaviy pedagogic texnologiya haqida bilim berish.

4. Talabalarni o'quv metodik adobiyatlar, dastur va darsliklarni tahlil qilishga o'rgatish.

5. Talabalarni tabiiy fanlarni o'qitishning turli uslublari va yo'llari bilan tanishtirish.

6. Talabalarda mazkur fandan o'qitishning turli tashkiliy shakllari, uslublarini, zarur ko'rgazmali qurollarni tog'ri tanlash malakalrini rivojlantirish.

7. Tabiiy fanlar muommolariga bag'ishlangan maqolalar, adabiyotlarga taqriz, annotatsiya yozishga o'rgatish.

8. Kuzatilgan dars va darslardan tashqari tadbirlarni mustaqil metodik jihattan to'g'ri tahlil qilishga o'rgatish.

9. Fanlararo aloqalar va ta'lif-tarbiya integratsiyasi asosida turli dars tiplari uchun ishlanmalar, reja-konspektlar tuzishga tayyorlash.

10. Maktablarda tabiiy fan darslarini o'tishda ekologik va tabiatni muhofaza qilish jihatlarini ko'ra bilishga o'rgatish.

11. Talabalarni Sharq mutafakkirlarining inson va uni o'rabi turgan tabiat bilan aloqalariga bag'ishlangan asarlari, ularning dunyoqarashlari bilan tanishtirish yana boshqalar.

12. Tabiiy fan o'quv fanlarining mazmuni, uning o'qitish shakllari, metodlari, vositalarini o'zaro bog'liq holda joriy etish.

13. Bo'lajak o'qituvchilarining tabiiy fan o'quv ganlarining mazmuni zamon talablariga mos ravishda yanada takomillashtirish.

14. Talabalarda darsdan tashqari mashg'ulotlarini, geografik ekskursiyalarini tashkil etish texnologiyasini yanada takomillashtirish.

15. Talabalarning har tamonlama rivojlangan shaxs sifatida kamol topishiga ko'mak beruvchi o'quv fanlar mazmunini, o'qitish shakllari, vositalari va metodlarini ishlab chiqarishdan iborat. [7]

Xulosa qilib aytganda, tabiiy fanlarni boshlang'ich sinflarda o'qitish, bolalarda qiziqishni orttirishda, taqdiqodchilik va analistik fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishda muhim rol oynaydi. Tabiiy fanlar darslari o'quvchilarda boshqalar bilan hamkorlikda ishlashni o'rgatish, texnologiyalardan foydalanish ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi. Tabiatni o'rganish, nafaqat bilim berish, balki bolalarning hayotga bo'lgan munosabatini shakllantirishda muhim ro'li oynaydi. Shu bois tabiiy fanni o'rganishda avvalo uning maqsadi va vazifalarini o'rgatib borish muhimdir.

Pedagogik nuqtai nazardan, tabiiy fanlarni o'qitish metodikasida zamonaviy interaktiv va amaliy yondashuvlarning qo'llanilishi alohida ahamiyatga ega. O'qituvchilar, o'quvchilarning individual qobiliyatlarini inobatga olib, darslarni shaxsiylashtirishlari kerak. Shuningdek, o'quvchilarga o'r ganilayotgan materialni hayotiy vaziyatlar bilan bog'lash, ularning kundalik hayotida qanday qo'llanilishini tushuntirish hamda bilimni mustahkamlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4884-son Qarori. "Boshlang'ich ta'limda o'qitish sifatini yaxshilashga qaratilgan chora-tadbirlar to'g'risida" (6-noyabr 2020-yil).

2. Abdumuratov, O. (2023) " Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar"
3. Karimova, D. (2016). "Boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiiy fanlar asosida o'qitish metodikasi". Tashkent: O'zbekiston yozuvchilar nashriyoti.
4. Abdumuratov, O. U " Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar" Toshkent-2023. "City of book" 7-bet.